Korporativ boshqaruv va firma qiymati o'rtasidagi bog'liqlik Andrei Shleifer va Robert W. Vishny tomonidan 1997-yilda chuqur tahlil qilingan. Ular investorlarni himoya qilish darajasi yuqori bo'lgan kompaniyalarda investitsion jozibadorlik yuqori bo'lishini ta'kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, IPO jarayonida korporativ boshqaruv institutlari investorlar uchun signal vazifasini bajaradi.

Empirik tadqiqotlarda ham korporativ boshqaruv va IPO muvaffaqiyati o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik tasdiqlangan. Alexander Ljungqvist va Tim Jenkinson IPO jarayonlarini o'rganib, korporativ boshqaruv sifati yuqori bo'lgan kompaniyalarda kapital jalb qilish samaradorligi yuqori ekanligini aniqlagan. Bundan tashqari, Rafael La Porta, Florencio Lopez-de-Silanes, Andrei Shleifer va Robert W. Vishny tomonidan 1998-yilda olib borilgan tadqiqotlar mamlakat darajasida huquqiy tizim va investorlarni himoya qilish darajasi IPO bozorining rivojlanishiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi.



Zamonaviy tadqiqotlar korporativ boshqaruvning aniq elementlariga e'tibor qaratadi. Masalan, mustaqil direktorlar mavjudligi, audit qo'mitasi samaradorligi va oshkoralik darajasi IPO muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi John C. Coffee tomonidan asoslab berilgan. Shuningdek, Bernard Black korporativ boshqaruv indeksleri orqali kompaniya qiymatini baholash mumkinligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar korporativ boshqaruv darajasi IPO muvaffaqiyatining muhim determinantlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Kuchli korporativ boshqaruv tizimi axborot shaffofligini oshiradi, investorlar ishonchini mustahkamlaydi va kompaniyaning kapital bozorlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy tahlil statistik ma'lumotlardan foydalanmagan holda quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi.

Nazariy tahlil usuli korporativ boshqaruv va IPO o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini agentlik muammosi, axborot asimmetriyasi va signallash (signaling) mantiqi orqali izohlashga xizmat qildi. Bunda korporativ boshqaruvning moliyalashtiruvchilar manfaatini kafolatlashga qaratilgan institutsional mazmuni asosiy nazariy tayanch bo'ldi [13].

Formal-yuridik tahlil usuli O'zbekiston Respublikasining aksiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog'ozlar bozoriga doir normasini (kuzatuv kengashi, mustaqil a'zo, ichki audit, axborotni oshkor qilish, emissiya va ommaviy joylashtirish tartibi) ichki mantiq va huquqiy konstruksiyalar nuqtayi nazaridan tahlil qilishni ta'minladi [10].

Qiyosiy-huquqiy tahlil usuli korporativ boshqaruv bo'yicha xalqaro standartlar (OECD tamoyillari), Buyuk Britaniya "comply or explain" modeli hamda AQShning qimmatli qog'ozlar bozorida disclosure va audit qo'mitalari bo'yicha majburiy talablarini O'zbekiston amaliyoti bilan solishtirish uchun qo'llanildi [6].

Tizimli yondashuv korporativ boshqaruv elementlarini "AJning umumiy boshqaruv tizimi + bozor infratuzilmasi + tartibga soluvchi muhit" bir butun ekotizim sifatida ko'rishga imkon berdi. IPO muvaffaqiyati ham aynan shu ekotizimdagi muvofiqlik va ishonchlik bilan tushuntirildi [8].

Tahlil manbalari sifatida O'zbekiston qonunchiligi va normativ hujjatlari, Korporativ boshqaruv kodeksi, kapital bozoriga oid prezident farmonlari, axborot oshkoraligiga doir hukumat qarorlari, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi [3] va kapital bozori infratuzilmasiga oid hujjatlar, xalqaro tamoyillar hamda korporativ boshqaruv bilan IPO o'rtasidagi bog'liqlikni yorituvchi ilmiy adabiyotlardan foydalanildi [7].

TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalo, korporativ boshqaruvning asosiy tarkibiy elementlari ichida kuzatuv kengashi faoliyati markaziy o'rin tutadi. O'zbekiston huquqiy modelida kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi, ijroiya organining faoliyati ustidan nazorat va strategik yo'naltirishni ta'minlovchi asosiy organ sifatida shakllantirilgan. Qonun normalarida kuzatuv kengashi majlislarini chaqirish, bayonnoma yuritish, ijroiya organi bilan shartnomalar tuzish va vakolatlarni tugatish kabi mexanizmlar nazarda tutilishi uning nazorat funksiyasini formallashtirilgan boshqaruvga aylantirishga qaratilgan [10]. Korporativ boshqaruv kodeksi esa kuzatuv kengashining shaffoflik siyosati, ichki nazorat va boshqa ichki hujjatlarni tasdiqlashi orqali tizimli boshqaruvni yo'lga qo'yishni tavsiya etadi [3].

Nazariy jihatdan, kuzatuv kengashi agentlik muammosiga qarshi monitoring instituti hisoblanadi. U menejmentning opportunistik xatti-harakatini cheklash, qarorlarni protseduralashtirish va aksiyador manfaatini himoya qilish orqali kapital qiymatini saqlash vazifasini bajaradi [13]. IPO kontekstida bu organ IPO oldi tekshiruv va oshkoralikni ta'minlash jarayonlarida qaror qabul qilish markazi bo'lib, investorlar ko'zida emitentning boshqaruv intizomini ifodalaydi [6].

Mustaqil direktorlar, ya'ni kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari instituti O'zbekiston qonunchiligida alohida norma sifatida tartibga solingan. Fond birjasi kotirovka varag'iga kiritilgan jamiyatlar hamda ustav kapitalida davlat ulushi yuqori bo'lgan jamiyatlar kuzatuv kengashida kamida bir nafar mustaqil a'zoga ega bo'lishi shart. Mustaqillik mezonlari, ya'ni yaqin yillarda jamiyatda ishlagan bo'lmaslik, muhim aksiyalar ulushiga egalik qilmaslik va yirik shartnomaviy bog'liqliklarga ega bo'lmaslik kabi talablar formal mustaqillikni ta'minlashga qaratilgan [10].

Bu institutning IPOga ta'sir mexanizmi uch yo'nalishda ko'rinadi. Birinchidan, mustaqil a'zo menejment va yirik aksiyadorlar ta'siri ostida qolishi mumkin bo'lgan qarorlarni muvozanatlashtiradi. Bu minoritar investor uchun ekspropriatsiya riskini pasaytiradi [13]. Ikkinchidan, mustaqil a'zo ishonchli signal vazifasini bajaradi. U mavjud bo'lgan taqdirda investor kompaniya ichida manfaatlar to'qnashuvi nazorat ostida, degan xulosaga kelishi osonlashadi [1]. Uchinchidan, mustaqil a'zolarning mavjudligi listing va bozor intizomi talablariga



moslashuv indikatoriga aylanadi. Bu IPOdan keyingi majburiy oshkoralik rejimida barqaror qolish imkoniyatini kuchaytiradi [10].

Axborot oshkoraligi va disclosure qimmatli qog'ozlar bozorida fundamental tamoyil sifatida belgilangan. Bozor axboroti ochiq va oshkor bo'lib, faqat qonunda belgilangan maxfiy axborot bundan mustasno hisoblanadi [9]. Emitentning axborotni oshkor qilishi emissiya risolasi, choraklik hisobot va boshqa shakllar orqali huquqiy majburiyat sifatida mustahkamlangan [9].

Bundan tashqari, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ veb-sayt orqali majburiy axborot joylashtirish talablari hukumat qarori bilan tizimlashtirilgan. Jamiyatning ustavi, biznes-rejalari, strategiyasi, tashkiliy tuzilmasi va rahbariyat haqidagi ma'lumotlar majburiy oshkor qilinadigan axborot sifatida ko'rsatiladi [11]. Kapital bozorini rivojlantirish doirasida esa listing kompaniyalari va aksiyadorlari bo'yicha korporativ hamda bozor ma'lumotlarini oshkor qilishning yagona platformasini yaratish, ya'ni Korporativ axborot yagona portalini shakllantirish institutsional maqsad sifatida belgilangan [8].

Korporativ boshqaruv kodeksi disclosure'ni tashkiliy majburiyat darajasiga ko'taradi. U jamiyat axborot siyosati to'g'risidagi nizomni tasdiqlashi, oshkor etiladigan axborot ro'yxati, muddatlari va kanallarini aniq belgilashi, shuningdek aksiyadorlar talabiga ko'ra maxfiy ma'lumotlardan tashqari zarur axborotni taqdim etishi orqali disclosure'ni protseduralashtiradi [3].

Ichki nazorat va audit tizimi qonunchilikda yirik jamiyatlarda tashkil etilishi va kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lishi lozim bo'lgan muhim institut sifatida ko'rsatilgan. Ichki auditning vazifalari qonunchilik va ichki hujjatlarga rioya etilishi, buxgalteriya hamda moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchligini ta'minlash, aktivlar saqlanishi hamda boshqaruv talablari bajarilishini monitoring qilishdan iborat. Shu bois bu institut korporativ boshqaruvni compliance va risk logikasiga yaqinlashtiradi [10]. Taftish komissiyasi yoki taftishchi mexanizmi ham moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish, affillangan shaxslar bilan bitimlar va yirik bitimlar yuzasidan xulosa berish orqali nazoratni kuchaytiradi [10].

Korporativ boshqaruv kodeksi ichki nazoratni alohida yo'nalish sifatida ko'rib, samarali ichki nazorat mexanizmlarini joriy etish va manfaatdor tomonlar manfaatini himoya qilishni tavsiya etadi. Bu yerda "comply or explain" mexanizmi alohida ahamiyatga ega. Jamiyat tavsiyaga rioya eta olmasa, buning sabablarini to'liq oshkor etishi talab qilinadi [3].

Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari korporativ boshqaruvning yadro elementlaridan biridir. O'zbekiston modelida bu mexanizm bir tomondan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi protseduralari va ularni hujjatlashtirish orqali, ikkinchi tomondan bozor axborotining ochiqdigi va insayder axborotga doir cheklovlar orqali mustahkamlanadi [10]. Korporativ boshqaruv kodeksi esa axborot siyosati, dividend siyosati va manfaatlar qarama-qarshiligini tartibga soluvchi korporativ hujjatlar tizimi orqali aksiyador huquqlarining protsessual kafolatlarini kuchaytirishni ko'zda tutadi [3].

Quyidagi 1-jadvalda korporativ boshqaruvning asosiy elementlari va ularning IPO muvaffaqiyatiga ta'sir mexanizmi tizimli ko'rinishda jamlangan (1-jadval).

1-jadval. Korporativ boshqaruv elementlarining IPO muvaffaqiyatiga ta'sir mexanizmi¹

Element	Huquqiy/institutsional tayanch	IPOga ta'sir mexanizmi	Kutiladigan natija
Kuzatuv kengashi	Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun; korporativ boshqaruv kodeksi	Menejment ustidan strategik nazoratni kuchaytiradi va qarorlar sifati bo'yicha tashqi signal beradi.	Investorlar uchun boshqaruvning hisobdordligi va emissiya qarorlarining ishonchligi oshadi.
Mustaqil direktorlar	Minimal mustaqillik talablari; OECD va qiyosiy board standartlari	Affillangan manfaatlar bosimini muvozanatlashtiradi va minoritar investor manfaatini himoya qiladi.	Risk-primiya pasayadi, bozor emitentga nisbatan ko'proq ishonch bildiradi.
Oshkoralik va disclosure	Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun; prospekt va davriy hisobotlar rejimi	Axborot asimmetriyasini qisqartiradi va investor qarori uchun zarur ma'lumotlarni standartlashtiradi.	Talab shakllanishi prognozlanadigan bo'ladi, noto'g'ri narxlash ehtimoli kamayadi.
Ichki audit va nazorat	Ichki auditning kuzatuv kengashiga hisobdordligi; compliance talablari	IPO oldi due diligence va post-IPO nazorat tizimining ishlashini tasdiqlaydi.	Huquqiy va operatsion risklar kamayadi, regulativ moslik kuchayadi.
Aksiyadorlar huquqlari	Minoritar huquqlarni himoya qilish, yig'ilishlar va axborotga kirish mexanizmlari	Bozor adolati va mulkchilik muvozanatini mustahkamlaydi.	Investor ishonchi ortadi va ommaviy joylashtirishga bo'lgan qiziqish kengayadi.

1 Muallif ishlanmasi



1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, IPO muvaffaqiyati alohida bir institut emas, balki kuzatuv, oshkoralik, ichki nazorat va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishning uyg'un tizimi orqali shakllanadi. Ayniqsa, kuzatuv kengashi va mustaqil direktorlar agentlik xavflarini pasaytirs, disclosure va ichki audit investorlar uchun axborot ishonchligini kuchaytiradi. Natijada emissiya jarayonining huquqiy xavfi kamayadi va investor talabi barqarorroq shakllanadi.

Yuqori darajadagi korporativ boshqaruv IPOga tayyorgarlikda, avvalo, investorlar ishonchini oshiradi. IPOda investor ishonchi ko'p hollarda kompaniyaning ichki sifatini bevosita o'lchashga emas, balki uning oshkoralik va hisobdorlik institutlari mavjudligiga asoslanadi. G20/OECD tamoyillari formal protseduralar shaffoflik va board accountabilityni kuchaytirib, bozorda ishonchni mustahkamlashini qayd etadi [6]. O'zbekiston korporativ boshqaruv kodeksi ham haqqoniy va ochiq biznes yuritish tarafdori bo'lishni namoyon etishga qaratilgan ixtiyoriy tavsiyalar tizimi sifatida aynan reputatsion signal vazifasini bajaradi [3].

Kompaniyaning ochiqqligini kuchaytirish, ya'ni axborot asimmetriyasini qisqartirish IPO jarayonining muhim afzalliklaridan biridir. IPO huquqiy jihatdan bozorga prospekt va boshqa oshkor etish hujjatlari orqali kirish jarayonidir. O'zbekiston bozorida ham emitentning axborotni oshkor qilishi emissiya risolasi va davriy hisobotlar bilan bog'langan [9]. Boshqaruv sifati yuqori bo'lganda disclosure majburiyatdan strategik boshqaruv vositasiga aylanadi. Ichki audit va kuzatuv kengashi nazorati ostida axborotning to'liqligi, izchilligi, zaruriyligi va o'z vaqtida e'lon qilinishi ta'minlanadi [10].

Risklarni kamaytirish ham IPO muvaffaqiyatiga xizmat qiladigan muhim omildir. IPO muvaffaqiyatiga bevosita tahdid qiladigan risklar qatoriga noto'g'ri yoki chalg'ituvchi axborot berish, emissiya jarayonida qonun talablarini buzish va ichki nazoratning zaifligi kiradi. O'zbekiston qonunchiligida emissiya jarayonida talablar buzilganda yoki e'lon qilingan axborotda noto'g'ri ma'lumot aniqlanganda emissiyani to'xtatib turish mumkinligi normativ tarzda nazarda tutiladi [9]. Demak, kuchli ichki nazorat va audit tizimi, shuningdek kuzatuv kengashi monitoringi IPOning yuridik uzilish riskini pasaytiruvchi profilaktik mexanizmga aylanadi [10].

Kompaniya qiymatini oshirishga xizmat qilishi, ya'ni kapital qiymati va risk-primiya bilan bog'liq omillar ham korporativ boshqaruv darajasiga bevosita bog'liq. Statistik ko'rsatkichlarsiz ham nazariy asosda shuni aytish mumkin, investor kutilayotgan pul oqimining o'zini emas, balki ushbu pul oqimining ekspropriatsiya va noaniqlik risklaridan tozalangan qiymatini sotib oladi [13]. Mustaqil a'zolar, shaffof disclosure va ichki audit kabi institutlar ekspropriatsiya ehtimolini pasaytirgani uchun risk-primiya mantiqan qisqaradi. Natijada kompaniyaning kapitalga chiqish qiymati, ya'ni cost of capital, imkon qadar qulaylashadi [6].

Quyidagi 1-rasmda korporativ boshqaruv institutlaridan IPO muvaffaqiyatiga olib boruvchi konseptual zanjir sxematik tarzda aks ettirilgan (1-rasm).



1-rasm. Korporativ boshqaruvdan IPO muvaffaqiyatiga o'tishning konseptual zanjiri²

1-rasm korporativ boshqaruvning IPO natijasiga bevosita emas, balki axborot sifati, ishonch va risk kutilmalari orqali ta'sir qilishini ko'rsatadi. Boshqaruv institutlari qanchalik puxta ishlasa, agentlik muammosi va axborot asimmetriyasi shunchalik kamayadi. Bu esa investor talabining kengayishi va kapital narxining nisbatan qulay shakllanishiga olib keladi. Shu ma'noda IPO muvaffaqiyati korporativ boshqaruvning bozor tiliga tarjima qilingan natijasidir.

Korporativ boshqaruvdagi kamchiliklar, avvalo, investorlarda ishonchsizlik va adverse selection effektini kuchaytiradi. Korporativ boshqaruv zaif bo'lsa, investorlar menejment xulq-atvori va ichki bitimlar bo'yicha ehtimoliy risklarni yuqori deb baholaydi [13]. Bu IPO jarayonida talabning sifat jihatdan pasayishiga olib keladi. Uzoq muddatli institutsional investorlar ehtiyotkor bo'lib qoladi, qisqa muddatli spekuliyativ talab esa bozor barqarorligini kafolatlamaydi [6].

Oshkoralik yetishmasligi va disclosure risklari ham alohida xavf omili hisoblanadi. O'zbekiston bozorida axborotni oshkor qilish ochiq va oshkor tamoyiliga tayanadi va emitent prospekt hamda davriy hisobotlar orqali axborot berishi shart [9]. Korporativ veb-sayt va boshqa kanallarda majburiy axborot joylashtirilishi ham normativ talablar bilan bog'langan [11]. Agar kompaniya ichki hujjatlari, ya'ni axborot siyosati, oshkor etish tartibi va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish mexanizmlari ishlamasa, disclosure fragmentar bo'lib qoladi. Bu esa prospekt sifatiga, due diligence jarayoniga va regulyator bilan muvofiqlikka salbiy ta'sir qiladi [3].

Boshqaruv risklarining ortishi ham IPO muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mustaqil a'zo instituti formal joriy etilmaganda yoki amalda mustaqillik zaif bo'lsa, kuzatuv kengashi managerial capture xavfiga duchor

2 Muallif ishlanmasi



bo'lishi mumkin. Bu holda kuzatuv kengashi nazorati nominal darajada qoladi [10]. Natijada IPOdan keyingi bozor intizomi, ya'ni doimiy oshkorlik, muhim faktlar va manfaatlar to'qnashuviga oid talablarni barqaror bajarish qiyinlashadi [9].

Investitsion jozibadorlikning pasayishi korporativ boshqaruv zaifligining yana bir oqibatidir. Korporativ boshqaruv zaifligi investitsion riskning noaniq, lekin yuqori toifasiga kirishi mumkin. Bozor odatda bunday noaniqlikni yuqori diskont bilan baholaydi. Bu esa IPOda taklif narxini shakllantirish, investorlar bilan muzokara va keyingi reputatsion kapitalga salbiy ta'sir ko'rsatadi [6].

O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv darajasini IPO nuqtayi nazaridan baholash shuni ko'rsatadiki, normativ baza ikki pog'onali. Bu baza "hard law", ya'ni qonun va hukumat qarorlari, hamda "soft law", ya'ni Korporativ boshqaruv kodeksi va ixtiyoriy standartlardan iborat. Qonunchilikda mustaqil a'zo instituti kabi muhim elementlar majburiy norma sifatida mustahkamlangani IPO va listing bosqichida minimal boshqaruv talabi mavjudligini bildiradi [10]. Ichki auditning kuzatuv kengashiga hisobdorligi ham nazorat funksiyasini kuchaytiradigan normadir [10].

Shu bilan birga, Korporativ boshqaruv kodeksi ixtiyoriy tavsiyalar majmuasi sifatida qurilib, "comply or explain" tamoyilini qabul qiladi. Jamiyat muayyan tavsiyaga rioya qila olmasa, buning sababini to'liq oshkor etishi kerak [3]. Kodeks tavsiyalariga rioya qilmaslik davlat organlari tomonidan sanksiya qo'llashga olib kelmasligi esa bozor intizomini asosiy stimulyator sifatida ko'rsatadi [3]. IPO sharoitida bu xususiyat ikki xil natija berishi mumkin. Bir tomondan, moslashuvchanlik va kompaniya xususiyatini hisobga olish imkoniyati saqlanadi. Ikkinchi tomondan, enforcement kuchsiz bo'lsa, amaliy ijro sifati pasayadi [2].

IPO kontekstida axborotni oshkor qilish infratuzilmasi sezilarli kuchaygan. Prezident farmonida listing kompaniyalari va aksiyadorlari bo'yicha korporativ hamda bozor ma'lumotlarini oshkor qilishning yagona platformasini yaratish vazifasi belgilangan, shuningdek korporativ axborot portalida emitentlarga oid ma'lumotlarni ochiq taqdim etish ko'zda tutilgan [8]. Bu yerda portal moderatorining Istiqbolli loyihalar milliy agentligi [13] ekanligi ham ko'rsatiladi [5].

Davlat ulushi mavjud yirik korxonalarni ommaviy taklif orqali xususiyashtirishni rag'batlantirish siyosati IPO mexanizmini davlat aktivlarini transformatsiya qilish instrumentiga aylantirishini anglatadi [8]. Bunday sharoitda korporativ boshqaruv sifati ayniqsa hal qiluvchi bo'ladi, chunki davlat ishtiroki yuqori bo'lgan kompaniyalar uchun siyosiy-agentlik risklari (goal divergence) oshishi ehtimoli mavjud (nazariy mulohaza) [12]. Shu sababli davlat ishtirokidagi korxonalar bo'yicha korporativ boshqaruv qoidalarining yangilanishi va ularning ham "comply or explain" asosida tatbiq etilishi, shuningdek kapital bozorlariga kirishni kengaytirish, shaffoflik va hisobdorlikni oshirish kabi maqsadlarni ochiq belgilashi — IPOga tayyorgarlikning institutsional fonini mustahkamlaydi [12].

Xalqaro standartlar bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) [10]. tamoyillari korporativ boshqaruvni bozor ishonchi, iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydigan institutlar majmuasi sifatida talqin qiladi. Ular shaffoflik, disclosure, aksiyadorlar huquqlari va kuzatuv kengashi mas'uliyatiga alohida urg'u beradi [6]. O'zbekiston korporativ boshqaruv kodeksining xalqaro tamoyillarga tayanishi, disclosure, ichki nazorat, manfaatlar to'qnashuvi va monitoring bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olishi mazkur global standartlarga funksional moslashuvni bildiradi [3].

Buyuk Britaniya [9] modeli "comply or explain" orqali soft law'ni bozor intizomi bilan uyg'unlashtiradi. Financial Reporting Council [13]. tomonidan e'lon qilingan "UK Corporate Governance Code 2024" 2025-yildan qo'llaniladi, ichki nazoratga oid Provision 29 esa 2026-yildan kuchga kiradi. Ushbu qoida kuzatuv kengashidan muhim ichki nazorat vositalari samaradorligi yuzasidan deklaratsiya berishni talab qiladi [2]. Bu yondashuvning IPO bilan bog'liq muhim xulosasi shundan iboratki, listingning o'zi kompaniyadan oldindan korporativ tayyorgarlik darajasini talab qiladi va keyinchalik doimiy hisobot rejimi orqali boshqaruv sifati bozor tomonidan muntazam baholanadi [2].

O'zbekistonda "comply or explain" tamoyili korporativ boshqaruv kodeksida mavjud bo'lsa-da, kodeks tavsiyalariga rioya qilmaslik uchun davlat sanksiyasi qo'llanmasligi aniq ko'rsatilgan [3]. Qiyosiy nuqtayi nazardan, bu holat "enforcement manbai"ni kuchliroq bozor intizomiga (investor talabi, listing qoidalari, reputatsiya) yuklaydi. Shuning uchun IPO amaliyotida — ayniqsa retail investorlar ulushi o'sadigan sharoitda — disclosure va ichki nazorat bo'yicha talablarni faqat ixtiyoriy tavsiyalar darajasida qoldirish investor ishonchini yetarli darajada mustahkamlamasligi mumkin (normativ-institutsional xulosa) [6].

Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) [8]. amaliyotida IPO, ya'ni going public, birinchi navbatda disclosure'ning huquqiy qat'iyligi bilan ajralib turadi. U.S. Securities and Exchange Commission [8]. kompaniyalarga ro'yxatdan o'tish bayonotini, ya'ni Form S-1ni, taqdim etishda non-financial disclosure uchun Regulation S-K, moliyaviy hisobotlar uchun Regulation S-X talablarini ko'rsatadi hamda e'lon qilingan ma'lumot chalg'itmasligi uchun zarur bo'lgan boshqa axborotni ham berish majburiyatini qayd etadi [16]. Bu yondashuv korporativ boshqaruvni hujjatlar to'plami emas, balki disclosure'ni to'g'ri ishlab chiqaradigan ichki tizim sifatida ko'rishni talab qiladi.

AQShda audit qo'mitalari mustaqilligi bo'yicha Exchange Act Rule 10A-3 doirasida standartlar belgilangan. Audit qo'mitasi a'zolari emitentdan maslahat yoki kompensatsion to'lovlar olmasligi va mustaqillik mezonlariga



mos bo'lishi kerak [15]. Nasdaq [2] listing qoidalarida esa audit qo'mitasi faqat mustaqil direktorlar tomonidan shakllantirilishi, minimal tarkib va boshqa governance qo'mitalari bo'yicha ham mustaqillik talablarini belgilaydi [4]. Shuningdek, selektiv disclosure'ga qarshi Regulation FD investorlar bozorida axborot tengligini ta'minlashga qaratilgan [14].

O'zbekistonda disclosure tamoyili va institutsional platformalarning (korporativ veb-sayt majburiyatlari, bozor axborotining oshkoraligi, yagona korporativ axborot portal) mavjudligi AQSh/Buyuk Britaniya modelidagi "axborot muhitining markaziyliigi" bilan bir yo'nalishda [11]. Biroq, qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, rivojlangan bozor yurisdiksiyalarida governance elementlari ko'proq "majburiy listing talablari + sud/ma'muriy enforcement" bilan qo'llab-quvvatlansa, O'zbekistonda ayrim muhim elementlar (masalan, korporativ boshqaruv kodeksining ko'plab tavsiyalari) bozor intizomiga tayanadi [2].

Quyidagi 2-jadvalda O'zbekiston, Buyuk Britaniya va AQSh tajribasi hamda OECD standartlari kesimida IPOga daxldor korporativ boshqaruv yondashuvlari qiyoslanadi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston, Buyuk Britaniya va AQShda IPO bilan bog'liq korporativ boshqaruv yondashuvlari³

Yurisdiksiya	Model	Board/audit talabi	Disclosure rejimi	IPO uchun amaliy xulosa
O'zbekiston	Hard law + soft law kombinatsiyasi	Kuzatuv kengashi, kamida bir mustaqil a'zo, ichki auditning boardga hisobdorligi	Prospekt, davriy hisobotlar, korporativ sayt va yagona portal orqali oshkoralik	Normativ baza mavjud, ammo pre-IPO talablarni amaliy jihatdan chuqurlashtirish zarur.
Buyuk Britaniya	Comply or explain modeli	Board mustaqilligi, audit qo'mitasi va ichki nazorat bo'yicha izohli hisobot	Code va listing rejimi bilan uyg'unlashgan bozor oshkoraligi	Moslashuvchanlik saqlanadi, biroq sifatli tushuntirishlar investor ishonchi uchun hal qiluvchi omil bo'ladi.
AQSh	Qat'iy disclosure va javobgarlik modeli	Audit qo'mitasi mustaqilligi va listing standartlari bilan mustahkamlangan board nazorati	Registration statement, prospectus va regulativ filinglar markaziy o'rinda turadi	Huquqiy qat'iylik va disclosure sifati IPO narxlashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.
OECD standartlari	Tamoyillarga asoslangan institutsional standart	Board hisobdorligi, manfaatlar muvozanati va nazoratning samaradorligi	Teng axborot rejimi va manfaatdor tomonlar oldidagi hisobdorlik	Milliy tizimlar uchun benchmark vazifasini bajaradi va institutsional yo'nalishni belgilaydi.

2-jadvaldan ko'rinadiki, barcha modellar investor ishonchini asosan kuzatuv kengashi nazorati va disclosure sifati orqali shakllantiradi, biroq bu maqsadga erishish usullari turlicha. AQSh modeli ko'proq qat'iy huquqiy javobgarlikka, Buyuk Britaniya esa "comply or explain" orqali bozor intizomiga tayanadi. O'zbekiston sharoitida esa mavjud bazani IPOga mos maxsus tayyorgarlik talablari bilan kuchaytirish asosiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Nazariy, huquqiy va qiyosiy tahlil birlashtirilganda, IPO muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi korporativ boshqaruv elementlari quyidagicha namoyon bo'ladi.


Birinchi hal qiluvchi element disclosure arxitekturasidir, ya'ni axborot siyosati, prospekt va periodik hisobotlar hamda teng axborot rejimidir. IPOda investor qarori asosan prospekt va unga bog'liq oshkor etilgan axborotga tayanadi. Shuning uchun disclosure'ni ishlab chiqaradigan ichki jarayonlar, jumladan axborot siyosati, ichki nazorat, audit va kuzatuv kengashi monitoringi mustahkam bo'lmasa, huquqiy risklar bilan bozor ishonchi riski bir vaqtda oshadi [16].

Ikkinchi hal qiluvchi element kuzatuv kengashi va mustaqil nazoratdir. Kuzatuv kengashining strategik rahbarlik va nazorat funksiyasi, ayniqsa mustaqil a'zo institutining real ishlashi bilan birga, menejment opportunizmini cheklaydi va investorlar uchun ekspropriatsiya xavfini pasaytiradi [10]. Empirik adabiyotlarda ham disclosure va kuzatuv kengashi mustaqilligining IPO narxlash hamda discount jarayonidagi agentlik muammolarini kamaytirishi haqida xulosalar uchraydi. Bu mazkur nazariy mantiqni qo'llab-quvvatlaydi [1].

Uchinchi hal qiluvchi element ichki nazorat va audit tizimining kuzatuv kengashiga hisobdorligidir. Bu element IPO oldi due diligence va IPOdan keyingi compliance tizimining ishlaydigan isboti hisoblanadi. Aks holda emissiya jarayonida noto'g'ri axborot va normativ buzilishlar emissiyani to'xtatib turish kabi huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin [10].



Quyidagi 2-rasmda O'zbekistonda IPO oldi korporativ boshqaruvni kuchaytirishning ketma-ket institutsional modeli ko'rsatilgan (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda IPO oldi korporativ boshqaruvni kuchaytirish modeli⁴

2-rasmda ifodalangan model IPOga tayyorgarlikni alohida choralar yig'indisi sifatida emas, balki izchil institutsional zanjir sifatida talqin qiladi. Normativ baza va kuzatuv kengashi mustaqilligi ichki audit hamda disclosure infratuzilmasi bilan mustahkamlangandagina aksiyadorlar huquqlarini real himoya qilish mumkin bo'ladi. Mazkur ketma-ketlik yakunda investor ishonchini oshirib, emitentning IPOga tayyorgarlik darajasini kuchaytiradi.

O'zbekistonda korporativ boshqaruv bo'yicha normativ-institutsional asoslar mavjud. Biroq, IPO muvaffaqiyati nuqtayi nazaridan yetarli rivojlanmagan jihatlar va institutsional o'zgarish ehtiyoji ham saqlanib qolmoqda. Xususan, mustaqil a'zo bo'yicha minimal talab, ichki auditning kuzatuv kengashiga hisobdorligi, disclosure bo'yicha bozor qonunchiligi, korporativ veb-sayt majburiyatlari va yagona axborot platformasi konsepsiyasi mavjud bo'lsa-da, institutsional zaifliklar asosan quyidagi yo'nalishlarda jamlanadi [10].

Birinchidan, soft law mexanizmlarining ishonch ishlab chiqarish quvvati bozor yetukligi bilan bevosita bog'liq. Korporativ boshqaruv kodeksining ixtiyoriyligi va davlat sanksiyasining qo'llanmasligi haqidagi norma "bozor bosimi"ni asosiy enforcement manbai qiladi [3]. Bozor institutsional investorlar va mustaqil tahlil infratuzilmasi bilan yetarli darajada chuqurlashmagan sharoitda bu bosim zaiflashishi mumkin, natijada "formal compliance" kuchayib, "substantive compliance" sust qolish xavfi ortadi (institutsional xulosa) [6].

Ikkinchidan, mustaqil a'zo instituti minimal talab sifatida mavjud bo'lsa-da, IPOga chiqayotgan yirik kompaniyalar uchun "kamida bir nafar" modeli yetarli bo'lmasligi mumkin. Investorlar ko'pincha audit va risk kabi sohalarida kuchli mustaqil nazoratni kutadi [15].

Uchinchidan, ichki nazorat bo'yicha deklarativ standart, masalan, kuzatuv kengashining muhim nazorat vositalari samaradorligi bo'yicha ochiq bayonoti O'zbekistonda kodeks tavsiyasi orqali bilvosita mavjud bo'lsa-da, uni listing va IPO oldi majburiy talablarga aylantirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu masala Buyuk Britaniyada Provision 29 orqali kuchaytirilgani bilan qiyoslaganda ayniqsa ahamiyatlidir [2].

Takomillashtirish yo'llaridan biri korporativ boshqaruv standartlarini kuchaytirishdir. IPOga chiqmoqchi jamiyatlar uchun korporativ boshqaruv kodeksini qabul qilishni va "comply or explain" hisobotini amaliy jihatdan IPO oldi tayyorgarlik sharti sifatida mustahkamlash maqsadga muvofiq. Bunda kodeksdagi ixtiyoriy tabiat saqlangan holda ham, listing jarayonida tushuntirishlarning sifati va to'liqligi bozor infratuzilmasi orqali baholanishi kerak [3].

Mustaqil direktorlar institutini rivojlantirish ham zarur. Qonundagi minimal talab, ya'ni kamida bir mustaqil a'zo IPO uchun boshlang'ich baza bo'la oladi. Ammo yirik IPO emitentlari uchun audit, risk va nomination kabi funksiyalar bo'yicha mustaqil qo'mitalar hamda professional mustaqillikni ta'minlaydigan kvalifikatsion yondashuvni kuchaytirish zarur [10].

Oshkorlik va hisobdorlik mexanizmlarini takomillashtirish ham muhim yo'nalishdir. Korporativ veb-sayt majburiyatlari va bozor disclosure qoidalari amalda yagona narrativga birlashtirilishi kerak. Prospekt, muhim

4 Muallif ishlanmasi



faktlar, davriy hisobotlar va korporativ boshqaruv hisobotlari bir-birini takrorlamasdan, balki izchil to'ldiradigan formatda taqdim etilishi investor ishonchini kuchaytiradi [11].

Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish ham zarur. Minoritar aksiyadorlar uchun axborotga kirish, umumiy yig'ilishlar o'tkazilishi va affillangan bitimlar ustidan nazorat kabi mexanizmlar IPOda bozor adolatining sharti sifatida ishlaydi. Shu bois bu mexanizmlarni korporativ hujjatlar va ichki nazorat tizimi orqali qat'iy protseduralashtirish lozim [9].

IPOga chiqmoqchi jamiyatlar uchun maxsus korporativ boshqaruv talablarini ishlab chiqish alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston kapital bozori islohotlari davlat ulushidagi korxonalarni ommaviy taklif orqali xususiylashtirishni rag'batlantirayotgan bir paytda, IPO emitentlari uchun minimal governance emas, balki IPO governance pack, ya'ni IPO oldi moslik paketi talabini normativ yoki listing qoidalari darajasida aniq belgilash mantiqan asosli. Bunday paket audit qo'mitasi mustaqilligi, ichki nazorat va risk tizimlari bo'yicha kuzatuv kengashi bayonoti, disclosure siyosatini majburiy ichki hujjat sifatida qabul qilish hamda korporativ boshqaruvning mustaqil baholanishini e'lon qilishni qamrab olishi kerak [8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korporativ boshqaruv investorlar kapitali qaytimi kafolatlanishini ta'minlovchi institutlar majmuasi bo'lib, u IPO jarayonida bozorga ishonchli kirishning asosiy sharti sifatida ishlaydi [13]. IPO muvaffaqiyati korporativ boshqaruvning alohida elementlari orqali quyidagi mantiqiy zanjir bo'yicha shakllanadi. Mustaqil nazorat va kuzatuv kengashi monitoringi disclosure sifati va axborot asimmetriyasining qisqarishiga olib keladi, bu esa yuridik hamda boshqaruv risklarining pasayishini, investor ishonchining ortishini va kapital qiymati hamda bozor qabul qilinishining yaxshilanishini ta'minlaydi [10].

O'zbekiston sharoitida korporativ boshqaruvning yuridik bazasi (mustaqil a'zo, ichki audit hisobdorligi, oshkoralik talablari, ommaviy joylashtirish instituti) IPO uchun zarur minimal infratuzilmani yaratadi [10]. Biroq, korporativ boshqaruv kodeksining ixtiyoriy tabiati va sanksiyasizligi bozor intizomiga yuqori tayanishni anglatgani uchun IPO emitentlari uchun "maxsus boshqaruv talablari"ni listing jarayoni bilan uyg'unlashtirish, mustaqil direktorlar institutini sifat jihatdan chuqurlashtirish hamda disclosure va ichki nazorat bo'yicha hisobdorlikni kuchaytirish amaliy jihatdan eng muhim takliflar sifatida ajralib chiqadi [3].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chahine, S., & Filatotchev, I. (2008, April). The effects of information disclosure and board independence on IPO discount. *Journal of Small Business Management*, 46(2), 219-241. <https://doi.org/10.1111/j.1540-627x.2008.00241.x>
2. Financial Reporting Council. (2024, January). UK Corporate Governance Code 2024. <https://www.frc.org.uk/library/standards-codes-policy/corporate-governance/uk-corporate-governance-code/>
3. Korporativ boshqaruv kodeksi. (2015, December 31). <https://azot.uz/uploads/docs/be0c3d70c6f015086f24d-19b3384eb2c.pdf>
4. Nasdaq. (n.d.). Nasdaq 5600 series: Corporate governance requirements. <https://listingcenter.nasdaq.com/rulebook/nasdaq/rules/nasdaq-5600-series>
5. Openinfo. (n.d.). Openinfo: O'zbekiston kompaniyalari to'g'risidagi ochiq ma'lumotlar portali. <https://openinfo.uz/>
6. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2023). G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023. <https://doi.org/10.1787/ed750b30-en>
7. O'zbekiston Respublikasining 06.05.2014 yildagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-370-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-2382409>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.04.2015 yildagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-2635197>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2021 yildagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5371091>
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.07.2014 yildagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 176-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-2420411>
11. Rules of corporate governance for enterprises with state participation. (2024, February 15). <https://www.expertiza.uz/upload/iblock/523/942csho0ktgwzgar3tqpeexmxfsq1063.pdf>
12. Shleifer, A., & Vishny, R. W. (1997). A survey of corporate governance. *Journal of Finance*, 52(2), 737-783. <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1997.tb04820.x>
13. U.S. Securities and Exchange Commission. (2000). Selective disclosure and insider trading. <https://www.sec.gov/file/reel-no-33-7881>
14. U.S. Securities and Exchange Commission. (2003, April 9). Standards relating to listed company audit committees. <https://www.sec.gov/rules-regulations/2003/04/standards-relating-listed-company-audit-committees>
15. U.S. Securities and Exchange Commission. (2024, June 21). What is a registration statement? <https://www.sec.gov/resources-small-businesses/going-public/what-registration-statement>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>